



MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING ISLOM SIVILIZATSIYASIDA TUTGAN O'RNI

Abduraximova Maftuna Maxammadjon qizi

Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi talabasi
mabduraximova050@gmail.com. +998 77 003 96 07

Madraximov Zoxid Sharofovich

Ilmiy rahbar;

Namangan davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17862561>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 05-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 09-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

Mahmud az-Zamaxshariy,
Xorazm, Islom sivilizatsiyasi,
"Al-Kashshof", arab tili, tafsir,
ilmiy meros, tilshunoslik

ABSTRACT

Mazkur maqolada vatandoshimiz, Islom olamining buyuk allomasi Mahmud az-Zamaxshariyning Islom sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Unda allomaning arab tili, adabiyot, tafsir, mantiq va kalom ilmlariga qo'shgan beqiyos hissasi yoritiladi. Ayniqsa, uning "Al-Kashshof" nomli tafsiri Qur'on ilmlari tarixida muhim burilish yasagan asar sifatida baholanadi. Shuningdek, Zamaxshariyning "Asos al-balog'a", "Al-Mufassal" kabi asarlari arab tili grammatikasini ilmiy asosda tizimlashtirishdagi ulkan ahamiyatini ko'rsatib beriladi. Maqolada olimning ilmiy merosi musulmon Sharqi madaniy hayotida, ayniqsa, ilmiy tafakkur, tilshunoslik va tafsirshunoslik sohalarida tutgan o'rni chuqur tahlil etilgan. Zamaxshariy ijodining o'rganilishi bugungi kunda ham islom sivilizatsiyasining ilmiy-ma'naviy asoslarini anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Islom sivilizatsiyasi – bu nafaqat diniy, balki ilmiy, madaniy va falsafiy taraqqiyotning yuksak bosqichlarini o'zida mujassam etgan ulkan madaniy hodisadir. Ushbu sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishida Markaziy Osiyo allomalari, xususan, Mahmud az-Zamaxshariyning o'rni beqiyosdir. Mahmud az-Zamaxshariy arab tili, adabiyot, mantiq, kalom va tafsir ilmlarini mukammal egallagan, o'z asarlari orqali musulmon dunyosida chuqur ilmiy iz qoldirgan zabardast mutafakkir sifatida tanilgan. Zamaxshariy hayoti davomida ilm-fanga, ayniqsa, Qur'on tafsiri va tilshunoslik sohalariga katta e'tibor qaratgan.

Allomaning to'liq ismi Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy bo'lib, u hijriy 467-yil rajab oyining 27-kuni (1075-yil 19-mart) Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. Otasi ko'p vaqtini Qur'on tilovati-yu namoz o'qish bilan o'tkazar, Zamaxshardagi masjidlardan birida imomlik ham qilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, og'ir illat tufayli alloma yoshligidan oqsoq bo'lib qoladi va shundan so'ng otasi uni og'ir mehnatga majburlamay, madrasaga beradi. Zamaxshariy ilmga bo'lgan zo'r ishtiyoqi tufayli arab tili va adabiyoti, diniy ilmlar va xattotlikni puxta egallaydi. Uning buyuk olim bo'lib yetishishida ustozlarining ham hissasi beqiyos. Xususan, Abu Mudar ibn Jarir ad-Dabbiy al-Isfahoniydan til, lug'at va adabiyotdan ta'lim olgan. Bag'dodda shayxulislom Abu Mansur Nasr al-Xorisiy, Abu Soad ash-Shaqqoniy, Abu Xattob ibn

Abul Batarlardan hadis ilmini o'rgangan bo'lsa, Makkada nahv va fiqh bo'yicha Abu Bakr Abdulloh ibn Talxat al-Yabiriy al-Andalusiy, shayx as-Sadid al-Xayyatiylardan saboq olgan. Lug'at ilmini esa Abu Mansur Mavhub abn al-Xodar al-Javoliqiy kabi mashhur olimlardan o'rgangan. Olim ko'p asarlarini Makkadaligida yozgan. Hayotida chuqur iz qoldirgan bu zaminda Zamaxshariy besh yilga yaqin yashagan. Allomaning "Jorulloh" ("Alloh qo'shnisi") degan sharaflı ta'rifga sazovor bo'lishi shundan [1. 80 – 81-betlar]. Zamaxshariyning Makkada yashagan yillari uning ilmiy tafakkuri yetuklikka erishgan bosqich sifatida e'tirof etiladi. U bu muqaddas maskanda Qur'on tafsiri, hadis ilmi, nahv va balog'at ilmlarini yanada chuqurlashtirgan. Makkalik ulamolar uning ilmiy saviyasiga tan berib, uni "Jarulloh" deb atay boshladilar. Bu unvon nafaqat hurmat ifodasi, balki Zamaxshariyning ilm ahliga yaqinligi va tafsir ilmidagi yuksak maqomini bildirardi.

Zamaxshariyning ilmiy merosi nihoyatda keng bo'lib, u tilshunoslik, tafsir, fiqh, adabiyot nazariyasi, mantiq va axloq ilmlariga oid yuzlab risola va kitoblar yaratgan. Ayniqsa, Qur'on tafsiri sohasida yozgan "Al-Kashshof" ("Kashshof an haqo'iq tavoil at-tanzil") asari islom olamida eng nufuzli manbalardan biri sifatida e'tirof etilgan. Ushbu asar nafaqat tafsir ilmi, balki arab tili nahvi va balog'ati bo'yicha ham yuksak ilmiy maktab vazifasini o'taydi. Zamaxshariy o'z asarlarida ilm-fanni chuqur tahlil qilgani, fikrlarni mantiqiy izchillik bilan bayon etgani va dalillarni mustahkam asoslagani bilan ajralib turadi.

Tilshunoslik va grammatikaning turli masalalariga oid asarlar az-Zamaxshariy ijodida salmoqli o'rin egallaydi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid "Al-Mufassal fin-nahv" nomli asarini u Makkada yashagan paytida bir yarim yil davomida yozgan. "Al-Mufassal" – arab tili nahvu sarfini mukammal o'rganishda eng muhim maibalardan biri sifatida azaldan Sharqda ham, G'arbda ham shuhrat topgan va g'oyatda qadrlangan. Ko'pchilik olimlar o'z ilmiy qimmatini jihatidan az-Zamaxshariyning bu asari taniqli arab tilshunosi Sibavayhning (vafoti 796) arab grammatikasiga oid mashhur kitobidan keyin ikkinchi o'rinda turadi, deb ta'kidlaganlar [2. 153-bet]. Az-Zamaxshariyning "Al-Mufassal" asari tilshunoslik tarixida nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Asar tuzilishi, bob va fasllarga ajratilishidagi aniq tartib, qoidalar bayonidagi sodda va tushunarli uslub, ko'plab misollar bilan dalillanishi uni boshqa grammatik manbalardan ajratib turadi. Shuning uchun ham "Al-Mufassal" faqat grammatik qo'llanma sifatida emas, balki uslubiy mahorat maktabi, balog'at ilmini chuqur anglash uchun asosiy manbalardan biri sifatida baholangan.

Mahmud az-Zamaxshariy faoliyati davomida 56 ta asar yaratgan bo'lib, olimning tilshunoslikka, arab tili grammatikasi va nafis adabiyotga oid "Asos al-balog'a" ("Notiqlik asoslari"), "Samin al-arabiya" ("Arab tili mag'zi"), "Foiq al-lug'at" ("Eng yaxshi lug'at"), "Muhoajtu an-nahviya" ("Grammatika hojatlari"), "Muqaddimat ul-adab" ("Nafis adabiyotga muqaddima"), "Atvoq uz-zahab" ("Oltin shodalari"), "Al minhoj fil-usul", "Rabiy' al-abror va nusub ul-axyor" ("Ezgular bahori va yaxshilar bayoni"), "Al-Kustos fi-l aruz" ("Aruzda o'lchov (mezon)", "Al-mustaqot fi-l amsol" ("Nihoyasiga yetgan masalalar"), "Muqomat" ("Maqomlar"), "Naboliq ul-kalom" ("Nozik iboralar"), "Al-mufas-sal" kabi asarlari ilmiy ahamiyatga egadir. Shuningdek, allomaning "Al-Kashshof" ("Ayon qiluvchi") asari Qur'onga bag'ishlangan mukammal tafsirdir [3. 24-bet.]. Zamaxshariyning bu asarlari nafaqat arab tili va adabiyoti ilmining rivojiga, balki butun islom ilm-fan maktabining shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Zamaxshariyning asarlarida til tizimi, soʻzlarning maʼnodagi nozik farqlari, iboralar tuzilishidagi uslubiy qudrat alohida oʻrin egallaydi. “Muqaddimat ul-adab” esa asrlar davomida madrasalarda asosiy oʻquv qoʻllanma sifatida qoʻllanilgan boʻlib, unda arab tili grammatikasi, soʻz yasalishi, sarf va nahv masalalari sodda va tushunarli uslubda yoritilgan. U adab va balogʻat ilmini shunchalik mukammal tarzda izohlaganki, har bir jumlaning zamirida lugʻaviy chuqurlik va uslubiy noziklik mujassam. Shuningdek, allomaning “Atvoq uz-zahab” kabi asarlarida axloqiy hikmatlar, ibratli rivoyatlar, inson qalbi va adabiy tafakkurga taʼsir etuvchi badiiy parchalar jamlangan. U nafaqat ilm ahliga, balki keng maʼnoda maʼnaviyatga intilgan kishilar uchun ham yoʻl koʻrsatuvchi manba boʻlib xizmat qiladi. Mahmud az-Zamaxshariy butun ijodi davomida tilni nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkurni tarbiyalovchi kuch sifatida talqin qilgan. Uning ilmiy merosi tilni toʻgʻri tushunish, goʻzal nutq tuzish va fikrni aniq ifoda etish madaniyatini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi. Bugungi kunda ham uning asarlari sharq filologiyasi, Qurʻonshunoslik, tasavvuf, adabiyotshunoslik va balogʻat ilmining muhim manbalaridan biri sifatida oʻrganilmoqda.

Az-Zamaxshariyning keng tanilgan “Al-Kashshof an haqiqi ittanzil va uyun il-aqoviyl fi vujuh it-taʼviyl” (“Qurʻon haqiqatlari va uni sharhlash orqali soʻzlar koʻzlarini ochish”) asari Qurʻon tafsiriga bagʻishlangan. Maʼlumki, oʻrta asrlardan boshlab Qurʻonni tafsir yoki sharh bilan oʻqish odat tusini olgan. Shu boisdan ham Qurʻon yaratilgan davrdan boshlab unga bagʻishlangan tafsirlar, sharhlar yozishga katta ehtiyoj sezilgan. Turmush taqozosi bilan shunday vaziyatda islom tarixida Qurʻonga bagʻishlangan koʻpdan koʻp tafsirlar, sharhlar vujudga kelgan. Az-Zamaxshariy ham tafsir yozishdan avval oʻzidan oldin yaratilgan Qurʻon tafsiriga bagʻishlangan koʻplab asarlarni qunt bilan oʻrgangan. “Al-Kashshof” az-Zamaxshariy Makkada turgan paytida, uch yil davomida yozilgan [4. 479-bet]. Ushbu asar yozilish jarayonida az-Zamaxshariy nafaqat mavjud tafsirlarni tahlil qilgan, balki ularning yondashuv uslublarini ham solishtirib, Qurʻon matnidagi balogʻat, uslub, lafziy tuzilish va maʼno qatlamlarini chuqur tahlil qilishga alohida eʼtibor qaratgan. “Al-Kashshof”ning oʻziga xosligi ham shunda – unda oyatlarning lugʻaviy ildizi, grammatik tuzilishi, bayon sanʼati va maʼnodagi nozik jihatlar bir-biri bilan uygʻun holda sharhlanadi. Az-Zamaxshariy tafsir berar ekan, har bir soʻzning ichki ohangi, uning matndagi oʻrni va taʼsir kuchini hisobga olgan holda yondashadi. Bu asar tafsir ilmidagi nazariy yondashuvni yanada yuksak bosqichga koʻtardi, chunki muallif Qurʻon oyatlarini faqat diniy hukmlar nuqtai nazaridan emas, balki ilmiy-mantiqiy tahlil, tilshunoslik va adabiy-estetik qarashlar nuqtai nazaridan ham izohlaydi. Shuning uchun ham “Al-Kashshof” keyingi asrlarda yaratilgan koʻplab tafsirlarga asosiy manba boʻlib xizmat qilgan. Ulamolar bu tafsirni mutolaa qilar ekan, undagi bayon uslubining ravonligi, dalillarning aniqligi va tafakkur teranligini alohida eʼtirof etganlar. Az-Zamaxshariy Qurʻon oyatlarining har bir lafzida hikmat borligini taʼkidlab, oʻquvchini matnni chuqur tafakkur bilan oʻqishga undaydi. Uning yondashuvi tafsirni shunchaki izoh berish emas, balki oyatlar orqali fikrni uygʻotish, tafakkurni faollashtirish, soʻzning ichki maʼnosiga kirib borish deb talqin etadi. Shu bois “Al-Kashshof” nafaqat tafsir, balki Qurʻonni anglash maktabi sifatida ham qadrlanadi.

Zamaxshariy bevosita adabiyotshunoslikka oid asarlar ham yaratgan. Biroq adabiyotshunoslikka bevosita aloqador boʻlmagan asarlarida ham adabiyotga, xususan, uslubshunoslikka va sheʼrshunoslikka tegishli boʻlgan masalalarni hal qilgan. Bu sohada oʻziga qadar mavjud boʻlgan nazariy fikrlarni rivojlantirgan, yangi materiallar bilan boyitdi va oʻziga qadar tilga olinmagan nazariy fikrlarni maydonga tashlagan. Zamaxshariy oʻz asarlarida badiiy

tasvir vositalariga qisqa, lekin aniq va nozik izohlar beradi. Masalan, kinoya bilan ta'riz san'atlari bir jihatdan bir-biriga o'xshab ketadi. Shuning uchun ba'zi filologlar bu ikki san'atni bir san'at deb ko'rsatadilar. Zamaxshariy esa bular orasida farq borligini ko'rsatib, "Biror narsani o'z nomi bilan emas, boshqa so'z bilan atasang, bu kinoyadir" deydi va misollar keltiradi. Ta'rizda esa biror maqsadni aniq aytmasdan shunga ishora qilinadi. Masalan, bir muhtoj hojat bilan bironing oldiga kelib o'z hojatini aniq aytmasdan, "...saxovatli yuzingizni bir ko'ray deb keldim" desa, bu ta'rizdir, deydi Zamaxshariy. Zamaxshariyning badiiy vositalardan foydalanish masalasidagi fikrlaridan biri shundan iboratki, badiiy vosita ma'no va til qoidalariga mos bo'lishi kerak [5. 14 – 15-betlar]. Zamaxshariy nazarida badiiy vositalarning eng muhim jihati – ularning tabiiyligi va ma'no oqimiga begona bo'lmasligidir. Ya'ni, so'z san'ati vositasi matnda sun'iy tarzda qo'yilmasligi, aksincha, mazmunning ichki ehtiyojidan kelib chiqishi lozim. Shundagina badiiy ifoda o'quvchiga ta'sir qiladi, qalbga yetib boradi. U badiiy so'zning vazifasi faqat chiroyli jumla tuzish emas, balki fikrni teranlashtirish, mazmunga ohangdorlik va ta'sirchanlik bag'ishlash deb biladi. Zamaxshariyning fikricha, badiiy vositadan ko'r-ko'rona foydalanish matnni bezamaydi, aksincha, uning tabiiyligini yo'qotadi. Shu sababdan u asarlarida har bir san'atni ma'no bilan bog'lab sharhlaydi, kinoya, istiora, tashbeh, ta'riz kabi san'atlarning faqat tashqi ko'rinishiga emas, balki ichki mohiyatiga e'tibor qaratadi. Uning yondashuvida badiiy uslub – bu so'zlarning oddiy ketma-ketligi emas, balki ma'no, his va niyatning bir butun holda ifodasidir. Zamaxshariy so'zning kuchini chuqur his qilgan, so'z orqali inson tafakkurini, ruhiy holatini va hatto ijtimoiy munosabatlarni aks ettirish mumkinligini ko'rsatgan. Shu bois u uchun har bir ibora mas'uliyat bilan qo'llanilishi kerak bo'lgan vositadir. Ayniqsa, u iboralar ortidagi niyatni anglashga alohida urg'u beradi. Masalan, kinoya – bu ochiq aytilgan so'z emas, balki ichida boshqa ma'no yashiringan ifodadir. Ta'riz esa kinoyadan ham nozikroq bo'lib, unda fikr bevosita aytilmaydi, balki o'quvchi yoki tinglovchi tafakkur qilishiga imkon qoldiriladi. Zamaxshariy fikricha, ana shunday usullar nutqni boyitadi, lekin ular mutanosiblik va me'yor bilan qo'llangandagina haqiqiy badiiy qudrat kasb etadi.

Zamaxshariy islom sivilizatsiyasi tarixida ilmiy tafakkurni yangi bosqichga ko'targan, tafsir, tilshunoslik va adabiyot nazariyasida mustaqil ilmiy maktab yaratgan yirik mutafakkir sifatida e'tirof etiladi. Uning "Al-Kashshof" va "Al-Mufassal" kabi asarlari nafaqat o'z davri ulamolari uchun ilmiy manba bo'lgan, balki keyingi asrlarda shakllangan ko'plab ilmiy oqimlar va talqinlarga asos bo'lib xizmat qilgan. Zamaxshariy tafakkuridagi mantiqiy aniqlik, tahliliy yondashuv va ilmiy jasorat uning ilmiy merosini o'ziga xos va beqiyos qiladi. U so'z va ma'no munosabatiga chuqur kirib borib, badiiy ifoda va til me'yorlari o'rtasidagi uyg'unlikni ilmiy asoslab bergan. Shuning uchun ham Zamaxshariy nafaqat Movarounnahr ilmiy-madaniy muhitining, balki butun islom olamining faxrli siymosi sifatida qadrlanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov O. R. Musulmon renessansi davrida O'rta Osiyoda fan va madaniyat rivoji tarixi. – Toshkent: "LESSON PRESS", 2023. – 219 bet.
2. Jumayeva N. A. Sharq allomalarining ilmiy merosi. O'quv qo'llanma. – T.: Durdona nashriyoti, 2020. – 228 b.
3. Niyozov G., Ahmedov Q., Tojiboyev Q. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarning barkomal avlod tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari. – Toshkent: "O'zbekiston", 2010.
4. Sagdullayev A. S. O'zbekiston tarixi. I kitob. – Toshkent: "NIF MSH", 2024. – 604 b.
5. Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. – Toshkent: "Fan", 1971. – 32 b.